



YASHIL SUKUK EMISSIYASI: MALAYZIYADAN MISOLLAR

Jiyanov Uktam Panjiyevich

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi

ORCID: 0000-0001-7711-6659

uktam.jiyanov87@gmail.com

Norboyeva Maftuna Shavkat qizi

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi

ORCID: 0009-00003-5559-2795

norboyevamaftuna1511@gmail.com

Annotatsiya. Yashil sukuk bu ekologik muommolarni hal qilishga qaratilgan loyihalarni moliyalashtirish uchun emissiya qilinuvchi islom qimmatli qog'ozlaridir. Mazkur maqolada yashil sukuklar emissiyasida yetakchilardan biri hisoblanadigan Malayziyadagi joriy holat, uning kelgusi yillar uchun istiqbolli loyihalari hamda investorlar uchun yaratib berilayotgan shart-sharoitlar ko'rib chiqilgan. Xulosa o'rnida, O'zbekistonda ham ushbu sektor doirasida qilinayotgan ishlarga to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: sukuk, Malaysiya fond bozori, yashil sukuk, alternativ moliyalashtirish, islom moliyasi.

ВЫПУСК ЗЕЛЕННЫХ СУКУК: ПРИМЕРЫ ИЗ МАЛАЙЗИИ

Жиянов Уктам Панжиевич

Международная исламская академия Узбекистана

Норбоева Мафтуна Шавкат кизи

Международная Исламская Академия Узбекистана

Аннотация. Зеленые сукук – это исламские ценные бумаги, выпущенные для финансирования проектов, направленных на решение экологических проблем. В данной статье рассматривается текущая ситуация в Малайзии, которая является одним из лидеров по выпуску зеленых сукук, ее перспективные проекты на ближайшие годы и условия, созданные для инвесторов. В заключении также были затронуты работы, проводимые в этой сфере в Узбекистане.

Ключевые слова: сукук, малазийский фондовый рынок, зеленый сукук, альтернативное финансирование, исламские финансы.

GREEN SUKUK ISSUANCE: EXAMPLES FROM MALAYSIA

Jiyanov Uktam Panjiyevich

International Islamic Academy of Uzbekistan

Norboyeva Maftuna Shavkat qizi

International Islamic Academy of Uzbekistan

Abstract. Green sukuk are Islamic securities issued to finance projects aimed at solving environmental problems. This article examines the current situation in Malaysia, which is one of the leaders in issuing green sukuk, its promising projects for the coming years, and the conditions created for investors. In the conclusion, the works carried out in this sector in Uzbekistan were also touched upon.

Keywords: sukuk, Malaysian stock market, green sukuk, alternative financing, Islamic finance.

Kirish.

Butun dunyoda sanoatlashishning yuqori darajada o'sib borayotganligi bugungi kunda tabiatni asrash, tabiiy mahsulotlarga bo'lgan ehtiyojning oshishiga sabab bo'lmoqda. Ya'ni jahon miqyosida yashil loyihalarni ishlab chiqish hamda ularni moliyalashtirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biriga aylandi.

Moliyalashtirishning yangicha muqobil varianti bo'lgan yashil sukuklarga talabning oshish sabablari sifatida investorlarning har tomonlama riskka chidamli instrumentlarga qiziqish bildirayotganligi bo'lsa, ikkinchi tomondan, hukumat tashabbusi bilan emissiya qiluvchi tashkilotlarning salmog'i oshib boryotganligidir. Jumladan, o'tgan yillardagi statistikaga e'tibor beradigan bo'lsak, birgina 2023-yilning birinchi 9 oyligida yashil sukuklar emissiyasi 10,1 mlrd. AQSh dollarini tashkil qilgan bo'lib, 2022-yilning xuddi shu davriga nisbatan 1,6% o'sishni ko'rsatgan. Unga ko'ra, Malayziya qariyb 9,82 million AQSh dollari bilan Saudiya Arabistonidan keyingi ikkinchi o'rinni egallagan. Bu davrda Malayziya yashil sukukdan tushgan mablag'ni energiya samaradorligi bo'yicha loyihalarni moliyalashtirishga sarflagan (London Stock Exchange).

Adabiyotlar sharhi.

Islom qimmatli qog'ozlari jumladan yashil sukuklarga doir tadqiqotlar hajmining oshib borayotganligi ushbu yo'nalish rivojiga sezilarli ijobiy o'zgarish olib kirmoqda. Bu maqolani yozish davomida olimlarning Malayziyada yashil sukuk emissiyasiga bag'ishlangan bir necha tadqiqotlari ko'rib chiqib, o'rganilganlik darajasi muhokama qilindi.

Ahmad Tajuddin Rozman va Nurul Afifa Azmi o'zlarining "Yashil sukuk, ekologiya muammolari va strategiyasi" (2021) nomli maqolasida Malayziyadagi dolzarb va eng muammoli ekologik muammolarni aniqlashga qaratilgan va ularni yashil sukuk muammoni moliyaviy jihatdan qanday hal qilishi mumkinligi haqidagi "Yashil sukuk" tashabbusi bilan bog'lab Malaysiya hukumati uchun strategiya yaratishda ba'zi takliflar bergan. Malayziyadagi 2020-yilgacha bo'lgan suv toshqinlari, havo ifloslanishi, ichimlik suvi tanqisligi kabi muommolar ko'rib chiqilgan va yashil sukuklar emissiyasi qay darajada foydali ekanligi ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Felicia HM Liu, Karen PY Lai, "Yashil ekologiya: Malayziyada yashil sukuk va uning rivojlanishi" (2021) nomli maqolasida yashil sukukning Malayziya davlat qurilishiga hissa qo'shishdagi qarama-qarshiliklari va cheklovlarini ko'rib chiqqan. Ma'lumotlar Kuala Lumpurdagi moliyaviy tashkilotlardan yig'ilgan bo'lib, har bitta emissiya qilingan yashil sukuklarning maqsadi tahlil qilingan. Shuningdek, yashil sukuk va yashil bondlar o'rtasidagi farqli jihatlar taqqoslab chiqilgan.

Syed Mabruk Billa va Nadia Adnan (2024) tomonidan yozilgan "Atrof-muhit muammolari va geosiyosiy xavflarni boshqarish: iqlim inqirozi va Rossiya-Ukraina mojarosi sharoitida yashil sukuk va islomiy qimmatli qog'ozlar bo'yicha tadqiqot" nomli maqola yashil sukuk va islomiy qimmatli qog'ozlarga sarmoya kiritish orqali o'z portfelini diversifikatsiya qilishdan manfaatdor bo'lgan investorlar uchun muhim ahamiyatga ega tadqiqot hisoblanadi. Ushbu tadqiqot Malaysiya, Indoneziya hamda Ko'rfaz mamalakatlarining yashil sukuk emissiyasini statistik jihatdan tahlil qilgan. Unga ko'ra, diversifikatsiya va xavfni kamaytirish masalalarida yashil sukuklar Covid-19 pandemiyasi va Rossiya-Ukraina urushi davrida ham mustahkam va bardoshli bo'lganligi o'z tasdig'ini topgan.


Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur maqolamiz doirasida yashil sukuk emissiyasida Malayziyaning roli hamda ushbu davlatda kelgusi davr uchun qilinayotgan ishlar bilan yaqindan tanishilgan va yashil sukuklarni joriy etishda qo'yilgan ilk qadamlar muhokama qilingan. Maqolani yozishda Malaysiya kapital bozori ma'lumotlari hamda ushbu mavzuda tadqiqot qilayotgan olimlar ishlaridan

foydalanilgan. Malaysiyada bugungi kungacha chiqarilgan barqarorlik maqsadlari uchun chiqarilgan yashil sukuklar statistik tahlil qilingan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

So'nggi yillarda sukuk bozori uchun foydali bo'lgan tendensiya atrof-muhit, ijtimoiy va boshqaruv (ESG) bilan bog'liq yo'nalishlarda chiqarilgan sukukka bo'lgan qiziqishning ortishidir. Quyidagi gistogrammada yashil sukuklar bo'yicha eng yetakchi davlatlarni ko'rish mumkin.



1-rasm. 2023-yil, 3-chorak holatiga ko'ra, yashil va barqaror sukukning mamlakatlar bo'yicha jami emissiyasi

Ushbu davrga kelib, 2023-yilning birinchi to'qqiz oyi davomida chiqarilgan ESG sukukning eng katta ulushi banklar hissasiga to'g'ri kelgan, bu umumiy emissiyaning 27% ini tashkil etdi. Ularning aksariyati Saudiya Arabistoni va BAAda joylashgan.

Malayziya kapital bozori subyektlariga barqaror rivojlanish sukuklarini yashil va ijtimoiy sukuk shaklida chiqarish imkonini bergan. 2017-yilda Malayziya dunyodagi birinchi yashil sukukni yirik quyosh fotoelektr stansiyalari qurilishini moliyalashtirish uchun chiqargan (Malaysia Kapital bozori, 2024).

Malayziya 2050-yilga kelib issiqxona gazlari emissiyasini nolga yaqinlashtirish rejasini tuzib chiqdi. Bu maqsad hukumatning bir qancha qarorlari, jumladan 2030-yilga qadar sanoatning yangi bosh rejasi milliy qayta tiklanadigan energiya resurslarini kengroq yo'lga qo'yishga asoslangan. Unga ko'ra, 2022-yil holati bo'yicha, Malayziyaning qayta tiklanadigan energiya quvvati 25% bo'lib, bu 9856 megavattni tashkil qilgan. Hukumat 2050-yilga kelib 1,2 trillion ringgitdan 1,3 trillion ringgitgacha bo'lgan potensial investitsiyalarni loyihalashtirib, YalMga taxminan 220 milliard ringgit hissa qo'shishi va 310000 ga yaqin yashil ish o'rinlarini yaratishi taxmin qilingan. Bu yo'nalishda quyidagi ishlar amalga oshirilishi rejalashtirilgan.

1) kommunal miqyosda quyosh energiyasidan samarali foydalannish uchun quyosh parklarini yaratish: federal, shtat hukumatlari va kommunal kompaniyalar o'rtasidagi hamkorlik orqali quyosh parkini rivojlantirish uchun tegishli yerlarni aniqlash, bu esa sanoatlarni karbonsizlantirishga yordam beradi;

2) quyosh va agrovoltaiik texnologiyalarni rag'batlantirish: Reja quyosh va agrovoltaiik loyihalarga to'sqinlik qiluvchi tartibga soluvchi to'siqlarni olib tashlashni o'z ichiga oladi, masalan, mavjud gidroenergetika sotib olish shartnomalariga o'zgartirishlar kiritish;

3) qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirish va energiya saqlash obyektlarini rag'batlantirishni o'z ichiga oladi;

4) qayta tiklanadigan energiya manbalarini ta'minlash uchun maxsus tizim ishlab chiqish: yashil elektr energiyasiga bo'lgan talab va taklif farqini bartaraf etish uchun to'lovlarni hisoblashning aniq mexanizmiga ega shaffof energiya kelishuvi tizimini ishlab chiqishni o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, u Korporativ Yashil Energiya dasturida ishtirok etuvchi quyosh energiyasini ishlab chiquvchilarga ortiqcha quvvatni yagona xaridorga sotish, yangi daromad oqimlarini yaratish va investorlarning qiziqishini oshirishga qaratilgan.

5) Qayta tiklanadigan energiya almashinuvi markazi va transchegaraviy savdo uchun qoidalarni ishlab chiqish, qo'shni davlatlar bilan o'zaro aloqalarni o'rnatish, ikki tomonlama yoki ko'p tomonlama savdo kelishuvlari orqali ortiqcha quvvatni monetizatsiya qilishni o'z ichiga oladi.

Malayziyadagi yirik korporatsiyalar chiqindilarni kamaytirish va barqaror ta'minot zanjirlariga sarmoya kiritish kabi ulkan yashil maqsadlarni qo'ymoqda. Quyida Malayziyadagi bir necha tashkilotlarning barqaror rivojlanishga qaratilgan uzoq yillarga mo'ljallangan rejalari bilan tanishib chiqamiz.

Masalan, Petronas qayta tiklanadigan energiya va uglerodni ishlash texnologiyalariga sarmoya kiritish orqali 2050-yilga borib nol emissiyaga erishishni maqsad qilgan (Petronas Net Zero Carbon Emissions). Sime Darbi plantatsiyasi 2030-yilga kelib chiqindini yo'q qilish va palma yog'ini barqaror ishlab chiqarishga e'tibor qaratmoqda. Malaysia Havo yo'llari o'zining ofset dasturi doirasida Malayziyaning Kuamut yomg'ir o'rmonlari loyihasidan uglerod kreditlarini taklif qilmoqda, u 16 million tonna CO₂ ni kamaytirish, mahalliy tabiatni muhofaza qilish va jamiyat rivojlanishini qo'llab-quvvatlashni maqsad qilgan. Xuddi shunday, CIMB Group o'zining yashil moliyalashtirish portfelini kengaytirishni rejalashtirgan. Bu majburiyatlar nafaqat ularning korporativ imijini oshiradi balki o'z amaliyotlarini global barqarorlik standartlariga moslashtiradi.

Quyida ushbu amaliyotda mumkin bo'lgan yo'nalishlar hamda ular uchun belgilangan tartiblar bilan tanishib chiqamiz (Yashil texnologiyalarni moliyalashtirish tashkiloti, 2024).

Yashil texnologiya ishlab chiqaruvchilari: Yashil mahsulotlarni ishlab chiqarish uchun (quyosh loyihalari bundan mustasno) 15 yilgacha bo'lgan muddatga 100 million ringitlik maksimal moliyalashtirish mumkin. Buning uchun kamida 60% Malayziya ulushi talab qilinadi va arizalar Malayziya yashil texnologiyasi va iqlim o'zgarishi tomonidan sertifikatlangan bo'lishi kerak.

Yashil texnologiyalardan foydalanuvchilar: energiya tejaydigan loyihalar uchun 10 yilgacha bo'lgan muddatga 50 million ringit miqdorida maksimal moliyalashtirishni amalga oshirish mumkin.

Uy-joy quruvchilar: sotish qiymati 350000 ringitgacha bo'lgan yashil turar-joy binolari uchun 5 yilgacha bo'lgan muddatga 100 million ringit miqdorida maksimal moliyalashtirish tirilishi mumkin.

Kam uglerodli infratuzilmalar: elektr transport vositalarini zaryadlash punktlari uchun 5 yilgacha bo'lgan muddatga 50 million ringit maksimal moliyalashtirilishi mumkin.

Yuqoridagi ma'lumotlar ko'pgina tarmoqlar uchun 60% gacha va chiqindilar uchun 80% gacha davlat kafolatini beradi. Moliya institutlaridan moliyalashtirishni izlashdan oldin arizalar sertifikatlashtirish uchun Malayziya yashil texnologiyalar va iqlim o'zgarishi korporatsiyasiga topshirilishi kerak.

Xulosa va takliflar.

O'rganilgan mavzudan kelib chiqib, shuni xulosa qilish mumkinki, Malayziya kabi islom moliyasi rivojlangan davlatlar hozirgi kunda atrof-muhitni yaxshilashga qaratilgan loyihalarni moliyalashtirishga ko'proq e'tibor bermoqda. Bu mamlakatda qayta ishlab chiqariluvchi energiya resurslaridan foydalanish, jumladan, yuqori energiya kuchiga ega bo'lgan quyosh fotoelektr parklarini barpo qilish va mamlakat istemolidan ortgan qismini exportga yo'naltirish kabi uzoq yillik strategik maqsadlarni belgilab olganligidan dalolatdir. Bu orqali, islom moliya instrumentlarining yanada rivojlanishiga va ekologiyani asrashga qaratilgan ishlarning kengroq yoyilishiga erishiladi.

Hozirgi kunda O'zbekistonda ham ekologiya, insonlar sog'lig'ini asrashga qaratilgan ulkan ishlar olib borilmoqda. Jumladan, joriy yilda Toshkentda Istiqbolli loyihalar milliy agentligi, Islom taraqqiyot banki, BMTTD hamda Istanbul Xususiy sektorni rivojlantirish xalqaro markazi (ICPSD) hamkorligida tashkil etilgan O'zbekistonda islom moliyasi va yashil sukuk bo'yicha ikki kunlik trening tashkil etildi. Trening davomida yashil sukukni muvaffaqiyatli ishga tushirish va ishlatish uchun shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan qator chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda. Yashil sukukning chiqarilishi va muomalasini tartibga solish bo'yicha me'yoriy-huquqiy bazani yaratish, ilg'or tajriba va standartlarni o'rganish va qo'llash maqsadida xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish, shuningdek, mahalliy va xalqaro sarmoyadorlarning xabardorligi va ishonchini oshirish bo'yicha ishlar yuzasidan batafsil ma'lumot almashindi (O'zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi). Bu kabi ishlarning olib borilishiga o'tgan yillar davomida poytaxt, Toshkent havosining ifloslik darajasi bo'yicha jahon reytingida eng yuqori ko'rsatkichni egallagani, markaziy ko'chalardagi tirbandlik darajasi kabi bir qator sabablar asos qilib olingan bo'lishi mumkin. Albatta, bu kabi muommolarni yechishda xalqaro hamkorlik asosida xorijiy kapitalni jalb qilish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar/Jumepamypa/Reference:

Ahmad Tajjudin Rozman, Nurul Afqah Azmi, (2021) *Green Sukuk, Environmental Issues and Strategy*, 2021, doi:10.1088/1755-1315/1067/1/012085.

Capital Markets Malaysia, (2024) <https://www.capitalmarketsmalaysia.com/public-sri-sukuk/>

Felicia HM Liu, Karen PY Lai, (2021) *Ecologies of green finance: Green sukuk and development of green Islamic finance in Malaysia*, 2021, DOI: 10.1177/0308518X211038349

Green Technology Financing Scheme, (2024) <https://www.gtfs.my/page/features-gtfs-40>

London Stock Exchange Group Data & Analytics, (2023) https://www.lseg.com/content/dam/data-analytics/en_us/documents/reports/lseg-green-and-sustainability-sukuk-update-2023-report.pdf

O'zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi, <https://napp.uz/uz/news/islom-moliyasi-va-sukuk-yashil-sukuk-trening>.

Petronas Net Zero Carbon Emissions 2025 Pathway, <https://www.petronas.com/sustainability/delivering-net-zero#JbopTabs2>.

Sustainable Fitch, (2023), <https://www.sustainablefitch.com/non-bank-financial-institutions/green-sukuk-market-prospects-bolstered-by-malysias-climate-goals-02-04-2023>

Syed Mabruk Billa, Nadia Adnan, (2024) *Navigating environmental concerns and geopolitical risks: A study on green sukuk and Islamic equities amid climate crisis and the Russia-Ukraine conflict*, <https://doi.org/10.1016/j.esr.2024.101372>